

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOYI NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ONA TILI TA'LIMIDA O'QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
anjuman materiallari

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ONA TILI TA‘LIMIDA O‘QITISH VA
BAHOLASH MUAMMOLARI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

Toshkent 2022

UO‘K: 494.375:371.3

KBK: 74.261.4

O - 56

Ona tili ta’limida o‘qitish va baholash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Elektron nashr. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 375 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasidan tayyorlangan.

Mas’ul muharrir:

M. Abdullayeva – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

- Q. Yo‘ldoshev** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida professor, pedagogika fanlari doktori.
- A. Sobirov** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida professor, filologiya fanlari doktori.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

- G. Jo‘rayeva** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori.
- K. Mavlonova** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
- D. To‘xliyeva** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
- H. Baxtiyorova** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida magistranti.
- Y. Xomidjonova** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida magistranti.
- M. Nomozova** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida magistranti.
- Sh. Tursun** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasida magistranti.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti Kengashining 2022-yil 4-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

3. Педагогика: энциклопедия./ Тузувчилар: Жамоа. ЎзПФТИ I жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2015. – 320 б.

4. URL <https://moluch.ru/archive/158/44686/>. Матмуротова З. Таълим методларини танлаш. // Молодой ученый. – 2017. №24. 2. – С. 39–40.

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISH

Iroda Ishonxanova,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishga salmoqli dars soatlari ajratilgan. Chunki ulug‘ bobokalonimiz shaxsiyatini bilish har bir o‘quvchi uchun juda muhim hisoblanadi. Bu jarayon samarali kechishi uchun o‘quv mashg‘ulotlarida yangicha usullarni qo‘llashimiz bugungi zamon talabidir.

Kalit so‘zlar: *Blum taksonomiyasi, bosqichlar, xronologiya, tahlil qilish, baholash, yaratish*

Ta’lim psixologi Benjamin Blum tomonidan yaratilgan taksonomiya o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan bilimlarni tizimga solish, saralash, tasniflash vazifasini bajaradi. O‘zlashtirib borilgan ma’lumotlar mustahkamlanib, keyingi pog‘onaga o‘tib boriladi. Blum taksonomiyasining oltita bosqichi mavjud: eslab qolish, tushunish, qo‘llash, baholash, tahlil qilish hamda yaratish. Blum taksonomiyasining ramzi piramida shaklida bo‘lib, biz yuqorida sanab o‘tgan bosqichlarimiz pastga boshlanadi. Bunda eng birinchi bo‘lib eslab qolish, ya’ni bilim jarayoni turadi. Bu xususiyat majoziy tarzda barcha narsaning asosida bilim turishiga ishora qiladi. Ikkinchi bosqich – tushunish. Bola ma’lumotni shunchaki yodda saqlashi emas, balki tushunishi zarur. O‘zlashtirilgan tushuncha esa keyingi bosqichda qo‘llab ko‘riladi. Baholash, tahlil qilish va yaratish bosqichlari ham o‘quvchidan ijodkorlik, keng fikrlash, tahlil o‘tkazish, yangilik yaratish, o‘z faoliyati va boshqalarning faoliyatiga xolis baho berishni talab etadi. Iqtidorli o‘quvchilar boshqa tengdoshlariga qaraganda piramida bo‘ylab ildamroq harakat qiladi.

Biz bu usulni adabiyot fanidagi ko‘plab mavzularni o‘zlashtirishda faol qo‘llashimiz mumkin. Xususan, mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishda qo‘l keladi. Alisher Navoiy hayoti va ijodiyotini o‘rganishda ushbu usulni qo‘llab ko‘ramiz.

Alisher Navoiy hayoti bo‘yicha Blum taksonomiyasi usulini qo‘llash

Eslab qolish – bu bosqichda Alisher Navoiy hayot yo‘li bo‘yicha topshiriqlar beriladi. Bunda adabiyot darsligidagi Alisher Navoiy hayot yo‘li haqidagi ma’lumotlardan unumli foydalanish zarur. Bundan tashqari, shoirning hayoti haqida qiziqarli ma’lumotlarni beruvchi boshqa ko‘plab manbalarga ham murojaat qilish mumkin. Masalan, “El desa Navoiyni” to‘plamida har bir sinf o‘quvchilari uchun mos keluvchi rivoyatlar bor. Alisher Navoiy hayot yo‘lining o‘qitilishida “El desa

Navoiyni” kitobi, shubhasiz, muhim o‘rin tutadi. Biz bu to‘plamdan unumli foydalanishimiz kerak. Masalan, 1-sinf “O‘qish” darsligiga “Alisher va bulbul” rivoyatini kiritish kerak. Navoiy taxallusi tanlanishiga ko‘rsatilgan bu sabab kelajakda ulug‘ shoir ijodini o‘rganish uchun kalit vazifasini o‘taydi.

5–7-sinf o‘quvchilari uchun “Olib keling!” rivoyati mos tushadi. Rivoyatdagi shoirning topqirligi va do‘stining fe‘lini yaxshi bilishi o‘quvchilarni e‘tiborli va ziyrak bo‘lishlariga xizmat qiladi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun “Bosh va til”, “Sharafli burch”, “Haddingdan oshsang, mozorga bor!” rivoyatlarining kiritilishi maqsadga muvofiq, chunki aynan yuqori sinflarda o‘quvchilar kelajak hayotlari haqida jiddiyroq o‘ylashadi, ularga ibrat bo‘luvchi hikoyatlar qiziqarli va foydalidir.

9-sinf “Adabiyot” darsligiga esa “Shoir jilovdori” rivoyatini kiritish juda zarur, negaki bu sinfda “Xamsa” va xamsachilik an‘analari borasida so‘z boradi. Turkiy tildagi “Xamsa”ni tamomlab, taqdim etgan ijodkorni adolatli va adabiyotga chin muxlis bo‘lgan hukmdor o‘z otiga mindirib, jilovdor sifatida shahar ko‘chalarini aylantirgani tinglovchining Alisher Navoiyga va “Xamsa”ga bo‘lgan hayratini oshiradi. O‘quvchi “Farhod va Shirin” dostonidan olingan parcha mutolaasiga jiddiy kirishadi.

Tushunish – o‘quvchi shoir haqidagi darslikda berilgan tarixiy faktlar haqida ma‘lumot beradi. Shu o‘rinda o‘quvchilarga “Navoiy zamondoshlari xotirasida”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari va boshqa tarixiy faktlar aks etgan adabiyotlarni tavsiya qilish mumkin, deb hisoblaymiz.

Qo‘llash – Alisher Navoiy hayot yo‘lining xronologik jadvalini yaratish vazifasi beriladi. Jadvalda shoirning hayot yo‘li yaqqol aks etib, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan ma‘lumotlari tizimga solinadi.

Tahlil qilish – Alisher Navoiyning bolalik yillari haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilinadi. Ya‘ni, “Uning buyuk inson bo‘lib yetishishi bolaligidagi qaysi xatti-harakatlaridan sezilgan?”, “Hozirgi bolalar Alisherdek bo‘la olishadimi?” kabi savollarga javob berib, o‘zini Navoiyning yoshligi bilan qiyoslaydi. Bu o‘rinda Alisher Navoiy haqida yozilgan biografik asarlardan ham foydalanish mumkin. Misol uchun, Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur”, Oybekning “Alisherning bolaligi”, Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni” nomli asarlarini tavsiya qilish mumkin.

Baholash – Alisher Navoiyning hayot yo‘li tanqidiy qarash bilan baholanadi. Masalan, vazir lavozimida ishlaganida, saroydagi fitnalar tufayli ketib qolmasdan, nohaqliklar bilan kurashish kerakligi haqida fikr bildirishi mumkin.

Yaratish – Alisher Navoiyning portretini yaratish, hayotini qismlarga bo‘lib, taqdimot qilish, shoir hayot yo‘li haqida intervyu tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, o‘zini jurnalist sifatida his qilish o‘quvchilar uchun juda ham qiziqarli.

Alisher Navoiy ruboiylari bo‘yicha Blum taksonomiyasi usulini qo‘llash

Eslab qolish – ruboiy haqidagi nazariy ma‘lumotlarni o‘zlashtirish, ulardan namunalar yodlash topshirig‘ini bajaradi.

Tushunish – ruboiylarning g‘oyasi, mohiyati haqida fikr bildiradi.

Qo‘llash – ruboiyning mazmunini yozish vazifasi beriladi.

Tahlil qilish – ruboiylarni boshqa janrga tegishli to‘rtliklar(qit‘a, tuyuq) bilan qiyoslab, lingvopoetik tahlil qilish vazifasi beriladi.

Baholash – o‘quvchi ruboiyning imkoniyatlarini baholaydi. Ya’ni, to‘rt misrada juda muhim fikrni bildirish mumkinligini isbotlab beradi.

Yaratish – ruboiylarning mazmuni, g‘oyasi aks etgan esse, insho, maqola yozish yoki loyiha tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid ta’limi mazmuni va metodikasini takomillashtirish uchun har bir sinf adabiyot darsligiga Alisher Navoiy hayoti haqidagi ma’lumotlardan kiritish, shoir shaxsiyati haqida ma’lumot berganda, tarixiy manbalardan unumli foydalanish, “Navoiy zamondoshlari xotirasida” hamda Alisher Navoiy muxlislari uchun yaxshi tanish bo‘lgan “El desa Navoiyni” kitoblaridan o‘quvchilarning yoshini inobatga olgan holda turli hikoyatlar bilan tanishtirish va bu orqali Navoiy shaxsi haqida o‘quvchilar tasavvurini boyitib borish, shuningdek, hamkorlikda ishlash, Blum taksonomiyasi darajalariga mos savol va topshiriqlar ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar:

1. Навоий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1985. – 224 б.

2. Ahmedov S. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Sharq, 2020. – 272 b.

3. Ahmedov S.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun. II qism. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 160 b.

4. To‘xliyev va b. Ta’lim bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish. – Toshkent: Bayoz, 2017. – 208 b.

5. To‘xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 184b.

6. To‘xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200 b.

7. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Sharq, 2017. – 368 b.

8. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 368 b.

9. Хусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент: Инновация-Зиё, 2020. – 326 б.

10. Эл деса Навоийни. Тошкент: Чўлпон, 1991. – 160 б.

MUNDARIJA

ONA TILI TA'LIMI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	
Shohidaxon Yusupova Psixolingvistik kompetensiyani rivojlantirish omillari	3
Alijon Hamroyev Ona tili talimida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi	7
Manzura Ernazarova, Nursaule Omonboeva Ona tili ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasi	13
G'ofir Hamroyev Ona tili ta'limining zamonaviy metodikasini yaratish: muammo va yechimlar	17
Klaraxon Mavlonova Matn tuzilishini o'rganishda qo'llanadigan qoidalar tavsifi	22
Saule Tajbenova O'quvchilarning til hodisalarini tadqiq etishga doir bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish	26
Sanobar Kuldasheva Ona tili darslarida multimediyadan foydalanishning psixologik jihatlari	28
Nilufar Xakimova O'qib tushunish malakasini shakllantirishga oid yondashuv va tamoyillar	31
Mahliyo Jakbarova O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish masalasi	34
G'iyos Do'stmurodov Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining adabiy talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni	38
Aziza Rustamova, Sanobar To'rayeva Boshlang'ich sinflarda ma'nodosh so'zlar ustida ishlashga doir topshiriqlar majmuyi	43
Mahfuza Abdijamilova "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida berilgan o'qish savodxonligiga oid materiallar tahlili	47
Shahlo Murodova O'qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash uchun savol-topshiriq tayyorlash	50
Dilfuza O'rmonova Takrorlash va mustahkamlash darslari –filologik maqsad hamda nutq o'stirish maqsadini uyg'unlashtiruvchi omil	55
Go'zal Matmuratova Ona tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlash – ta'lim samaradorligini oshirish omili	58
Dildor Nurmuxamedova Og'zaki nutq savodxonligida hamkorlik ta'lim texnologiyalarining afzalliklari	61

Dilnoza Boymaxmatova Ona tili ta'limida to'garak mashg'ulotlarining tarixiy taraqqiyoti	66
Sanobar Mirsolihova Ona tili va adabiyot darslarida fanlararo integratsiya	70
Shohista Xudoynazarova, Sayyora Matkarova Til ta'limida matn bilan ishlash orqali o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish	73
Husnora Baxtiyorova 6-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning mazmun-mohiyati	76
Saidova Kamola O'quvchilarda lisoniy hodisalarni farqlash ko'nikmasini shakllantirish usullari	79
Xosiyat Navruzova 7-sinf o'quvchilarida sodda gap shakllarining o'zlashtirilishi	83
Zebiniso Davronova Tasviriy matn yaratishda hissiy sezish qobiliyatining o'rni	87
Firuza Mirzaraxmedova Yangi O'zbekistonda yangi islohotlar (yangi avlod darsliklari yuzasidan fikr-mulohazalar)	89
Feruza Muratova Ona tili darsliklarida topshiriqlar metodikasining takomillashuvi	93
Yulduz Usmonova Ona tili darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi xususida	97
Aida Kamolova Ona tili ta'limida faollashtiruvchi o'yinlar (enerjayerlar) ning o'rni	100
Xumora Erkinova O'quvchilarda mulohaza (agree or disagree) mazmunidagi esselar yozish ko'nikmasini shakllantirish	103
Nozanin Yusupova Ona tili darslarida video va audio materiallardan foydalanish	106
Iroda Xushvaqtova Og'zaki nutqni rivojlantirish zarurati	109
Ziyoda Sobirxonova Ona tili ta'limida o'quv lug'atlarining yaratilishiga bo'lgan talab	112
Marjona Nurboboyeva Ona tili ta'limida sinonimlar elektron o'quv lug'atlaridan foydalanishning ahamiyati	118
TIL TA'LIMIDA BAHOLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	
Shohruh Abdiraimov O'qituvchilarining mumtoz matni tushunish darajasini aniqlashga doir	120
Oysuluv Musurmonkulova Xalqaro tajribalar asosida o'quvchilarni baholash usullari	123
Nilufar Turg'unova Leksik birliklarni kontekstda qo'llash bo'yicha tajriba tahlili	130

Feruza Sharopova O‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlashga oid tajribaviy tadqiq mazmuni	135
Nargiza Ergasheva Ona tili ta’limida o‘quvchilarning anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish	138
Shokir Tursun Ona tilida o‘qib tushunish malakasini summativ baholashning tajribaviy tadqiqi	140
Yulduzxon Xomidjonova 6-sinf ona tili darsligida tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tahlili	149
Malika Nomozova Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutq uslublarini farqlash ko‘nikmasini aniqlashga oid tajriba-sinov ishlari	153
Badriddinova Umida Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning o‘ziga xos usullari	160
Shahrizoda Yo‘ldasheva Bolaning nutqini rivojlantirishga qaratilgan omillar	164
Usmonali Muradullayev 5-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini baholashda qayta hikoya qilish metodining amaliy ahamiyati	167
ADABIY TA’LIM VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
Boqijon To‘xliyev Qit’a janri va uni tahlil qilish yo‘llari haqida	171
Roza Niyozmetova, Mohigul Fozilova Badiiy asar mazmunini tinglab tushunish	174
Gulnoza Jo‘rayeva O‘zbek bolalar adabiyotida yangilanish ehtiyoji	178
Shoira Axmedova Adabiy ta’limda bixevioristik yondashuvning o‘rni	185
Saodat Kambarova O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish – ifodalilik asosi	188
Mahfuza Tuychiyeva Adabiyot darslarida o‘quv materiali yordamida kompetensiyaviy yondashuvni ta’minlash	192
Iroda Ishonxanova Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishda blum taksonomiyasidan foydalanish	196
Oysuluv Musurmonkulova Adabiy ta’limda tahlilning o‘rni	199
Umida Shermatova Adabiyot ta’limi muammolari: mumtoz matn ustida ishlashda savol va topshiriqlar tizimini yaratish (“Sher bilan durroj” (Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni) hikoyati asosida)	201